

**TOPISHMOQ VA MAQOLLAR: NAZARIY ASOSLARI, TARIXIY
TARAQQIYOT VA ZAMONAVIY TAHLILI****Boypo‘latova Sevinch***Termiz davlat universiteti talabasi***Ximmatova Go‘zal***Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi***Anotatsiya**

Ushbu maqolada o‘zbek folklorining ikki yetakchi janri – topishmoq va maqollarning genetik ildizlari, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari, shuningdek, zamonaviy filologiya fanidagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada ushbu janrlarning tarixiy evolyutsiyasi va bugungi kunda lingvokulturologik hamda kognitiv yo‘nalishlardagi tadqiqot obyektiga aylanishi masalalari yoritilgan. Topishmoq va maqollarning til va madaniyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy -falsafiy ahamiyati, xalq og‘zaki ijodidagi funksiyalari chuqur tahlil qilinadi,

Kalit so‘zlar: *topishmoq, maqol, og‘zaki ijod, folklor, tarixiy taraqqiyot, badiiy tafakkur.*

Abstract

This article analyzes the genetic roots of two leading genres of Uzbek folklore – riddles and proverbs, their mutual similarities and differences, as well as their role in modern philological science. The article highlights the issues of the historical evolution of these genres and their transformation into an object of research in modern linguoculturological and cognitive directions. The article provides a profound analysis of the role of riddles and proverbs in language and culture, their socio-philosophical significance, and their functions within oral folk creativity.

Keywords: *riddle, proverb, oral folk art, folklore, historical development, artistic thinking.*

Аннотация

В данной статье анализируются генетические корни двух ведущих жанров узбекского фольклора – загадок и пословиц, их взаимосходства и различия, а также их роль в современной филологической науке. В статье освещаются вопросы исторической эволюции этих жанров и их становление объектом исследований в современных лингвокультурологических и когнитивных направлениях. В данной работе глубоко анализируются место загадок и пословиц в языке и культуре, их социально-философская значимость, а также их функции в устном народном творчестве.

Ключевые слова: *загадка, пословица, устное народное творчество, фольклор, историческое развитие, художественное мышление.*

Kirish

Topishmoq va maqollar xalq og‘zaki ijodining qadimiy va serqirra janrlari bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos badiiy, ijtimoiy va tarbiyaviy funksiyalarga ega. Bu janrlar asrlar davomida xalqning dunyoqarashi, tafakkuri, hayot tajribasi va qadriyatlarini mujassamlashtirib, avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Topishmoq va maqollar nafaqat og‘zaki ijod namunasi sifatida, balki xalq tafakkurining ramziy ifodasi, til va madaniyat taraqqiyotining muhim ko‘zgusi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy hayotdagi o‘rni ko‘plab ilmiy izlanishlarga sabab bo‘lgan. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yilliklarda topishmoq va maqollarni lingvistik, semiotik, sosiologik va madaniy nuqtai nazardan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada mazkur janrlarning nazariy asoslari, tarixiy taraqqiyoti, region va milliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, zamonaviy empirik ishlanmalar va mavzuga oid bahs-munozaralar keng qamrovli ilmiy tahlil qilinadi.

Topishmoq va maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlari sifatida, ularning shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy madaniyatdagi ahamiyati yuzasidan uzoq yillik ilmiy izlanishlar olib borilgan. Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zlarga aytiladi. Maqol o‘zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so‘zlashuvda) naql, turklarda ata so‘zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamasi arabcha [JjS] - qavlun - gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan. Maqollarda so‘z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so‘zlami boshqasi bilan almashtirish, biron so‘z qo‘shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bor bo‘lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda “qavlun” - gap, so‘z ma‘nosini ifodalasa, tojiklarning “zarbulmasal” atamalarida misol keltirish, ruslar “poslovitsa”sida so‘zlar bilan fikmi ifodalash, turklardagi “ota so‘zi”da esa ajdodlar fikrini eslash ma‘nosi yetakchi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham “sav” atamasi otalar so‘zini eslash tarzida keltirilgan.

Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan.
2. Maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma‘noni ifodalaydi.
3. Xalq maqollari shaklan she‘riy va nasriy bo‘ladi. Ammo nasriy maqollar ham she‘riy misralami eslatadi. Masalan: Ko‘za kunda emas, kunida sinadi.
4. Maqollarda hayotiy voqea-hodisa haqida: qat‘iy hukm ifolanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi.

5. Maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazardan umumlashtiradi.

6. Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodidagi maqollar janri tarixiy hayot davomida son va mazmun jihatdan boyish xususiyatiga ega. Ya’ni maqollar zamon o‘tishi bilan iste’moldan chiqishi va ayni paytda yangi-yangi namunalari vujudga kelishi mumkin. Maqollarning iste’moldan chiqishida quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

1. Tarixiy hayotning o‘zgarishi. Ijtimoiy hayotda maqolni qo‘llash ehtiyojining yo‘qolishi oqibatida maqol xalq esidan chiqadi.

Omoch seni to‘ydirgay,

Omboringni to‘ldirgay.

Omoch ishlatish asta-sekin yo‘qola borgan sari bu maqol ham iste’moldan chiqqan.

2. Tarixiy so‘zlar ishtirokidagi maqollar vaqt o‘tishi bilan yo‘qoladi.

Qoziga bersang suyar,

Bermasang - so‘yar.

TOPISHMOQLAR

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko‘ra maqollarga o‘xshaydi. Ba‘zan mazmuniga ko‘ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janming nomlanishiga e’tibor bering. “Top” so‘zining talaffuz etilishidanoq o‘yla, axtar, solishtir, izla ma’nolari yetakchilik qiladi. Unga “ish” qo‘shimchasi qo‘shilganda, vazifa aniqlashadi. “-moq” harakat nomi qo‘shimchasidan keyin “qo‘lingdan kelsa”, “eplasang”, “uddalay olsang” tushunchalari ifodalanadi. Mahmud Koshg‘ariy topishmoqni qadimda “tabzugi” deyishganini qayd etadi. “Tabzug‘uq tabuzdim” (Men undan bir topishmoqni so‘radim) jumlasini keltiradi. Bu ma’lumot topishmoqning tarixi qadimga borib taqalishini ko‘rsatadi.

Topishmoqlarning quyidagi janr xususiyatlari bor:

1. Hajm jihatdan qisqa va ixcham.

2. Shaklan she’riy, nasriy ko‘rinishga ega.

3. Yaratilish maqsadida matnda yashiringan narsani topish vazifasi qo‘yiladi.

4. Mazmunida hayvonot, o‘simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirintarзда ifodalanadi, uni topishga da’vat etiladi.

5. Topilishi lozim bo‘lgan narsa, ko‘pincha, bitta, ba‘zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo‘ladi.

6. Topishmoqlarda qo‘llangan asosiy badiiy san’at istiora (metafora) hisoblanadi.

Topishmoqlarda topilishi lozim bo‘lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi, ammo bu belgilar istiora san‘atidan foydalanilgan holda boshqa narsa bilan bog‘lanadi. Masalan:

Qopcha,

Qopcha ichida uncha,

Uncha ichida ustuncha.

Bu matnda yashiringan narsaning uchta belgisi uchta istiora vositasida berilgan. Demak, uning shakli qopga, ichidagi qismi unga o‘xshatilmoqda. Faqat un o‘rtasida ustuni ham bor ekan. Topishmoqni topayotgan odam matnda jiyda haqida gap ketayotganini topsa, fikriy musobaqada enggan bo‘ladi. Ko‘pincha, yashiringan narsaning faqat ko‘rinishi, xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi, lekin hech narsaning nomi qayd etilmaydi. Bunday vaziyatlarda izlovchi shaxs faqat o‘zi bilgan narsalarga xos belgilarni eslab yechimni topishi mumkin.

Og‘zi ola alomat,

Ichi qizil qiyomat,

Suv sepsam, quruq chiqar,

Yo alhazar, salomat.

Bu topishmoqda “alomat”, “qiyomat”, “salomat” so‘zlari asosan qofiya hosil qilish uchun keltirilganini bilishimiz kerak. Endi yashiringan narsaning og‘zi borligiga, bu og‘zining ko‘rinishi ola ekaniga, ichi qizilligiga, uning ichida suv sepiladigan narsa bo‘lishiga diqqat qilamiz. Suv sepsagu u narsa quruq chiqsa, demak “qizil qiyomat” olov bo‘lishi mumkin. Shundan so‘ng nimaning ichida olov bo‘lishini esga olamiz. Va yashiringan narsa tandir ekanini topamiz. Ammo baribir topishmoqning javobini topish oson emas. Topishmoqni topish uchun uning yaratilishida muallif bo‘lgan noma‘lum shaxsdek fikr yuritish usulini izlash kerak. Agar har bir topishmoqning zaminida muayyan fikriy kashfiyot yotishini nazarda tutsak, uni topadigan shaxs ham aynan shu yangilikni boshqa yo‘l bilan kashf qilishi kerak bo‘ladi. Binobarin, u ham muallif hayottajribasiga, kuzatish nuqtai nazariga, fikr yuritish yo‘nalishiga ega bo‘lishi lozimligi sabab juda murakkab tarzda mulohaza yuritish jarayonini boshidan kechiradi. Topishmoqlardagi savollar tizimi xususiyatlarni sanash tarzda amalga oshirilgan ekan, hayratomuz qarama-qarshi mulohazalarga duch kelamiz. Masalan: “Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar”, “U yoqqa o‘tdim - bildingmi, bu yoqqa o‘tdim - bildingmi, Oq quvrayning boshini, chertib o‘tdim - bildingmi?” topishmoqlarida hayron qolishga majbur qiladigan muammolar juda ko‘pga o‘xshaydi. Xususan, bizni qanday qilib qo‘l bo‘lmasa, oyoq bo‘lmasa eshik ochish mumkin, axir eshik o‘zi nima bilan ochiladi? - degan savol o‘ylantiradi. Ikkinchi namunada esa nahotki u yoqdan bu yoqqa o‘tgan narsani men sezmasligim mumkin? U narsaga oq quvray - cho‘l-dashtda o‘sadigan yowoyi o‘tning nima aloqasi bor? Yoki nega chertadi, uzmaydi yoki boshqa narsa qilmaydi, - degan savollar

qiynaydi. Bu savollarga javob topish uchun biz savol bergan odamning fikr yuritish usulidan foydalanishimiz lozim bo'ladi. Shundagina har ikki savolning javobi shamol ekanini topamiz. Topishmoqning paydo bo'lishi haqida folklorshunoslikda aniq daliliy ma'lumotlar yo'q. Ayrim olimlar uning qadimiy ekanini qayd qiladilar. Ammo maqollar namunalari ko'plab keltirilgan "Devonu lug'otit turk" asarida "tabzug" so'zi uchragani holda topishmoq matni yo'q. Topishmoq hajman, shaklan maqolga o'xshaganligi uchun bu ikki janming vujudga kelish vaqti ham bir xil bo'lishi kerak, degan taxmin bildirilgan. Topishmoq va maqollarga oid zamonaviy bahs-munozaralar, asosan, ularning ijtimoiy funksiyalari, madaniy identitetni shakllantirishdagi o'rni, zamonaviy kommunikativ muhitga moslashuvi va globalizatsiya sharoitida o'zgarishi bilan bog'liq. Ba'zi olimlar, zamonaviy jamiyatda topishmoq va maqollarning ahamiyati kamayib borayotganini, ularning funksiyalari cheklanayotganini ta'kidlashadi. Boshqa tadqiqotchilar esa, aksincha, zamonaviy kommunikativ muhitda ushbu janrlarning yangi shakllari va funksiyalari paydo bo'layotganini, ularning axborot, tarbiya va kommunikatsiya vositasi sifatida ahamiyati oshayotganini ko'rsatadilar. Masalan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda maqollar va topishmoqlarning yangi variantlari, memlar va qisqa iboralar shaklida tarqalishi, ularning zamonaviy madaniyatga moslashuvi va ahamiyatini ko'rsatadi. Bu holat, xalq og'zaki ijodining doimiy rivojlanish va yangilanish jarayonida ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Yuqorida olib borilgan keng qamrovli tahlil natijasida aniqlanishicha, topishmoq va maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, sermazmun va ko'p funksiyali janrlari sifatida, til va madaniyat taraqqiyotida, jamiyat hayotida, axloqiy tarbiya va kommunikatsiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi xalq tafakkuri, hayot falsafasi, ijtimoiy tuzum va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq. Topishmoq va maqollar og'zaki ijodning nafaqat badiiy, balki kommunikativ, tarbiyaviy, axborot va integratsion funksiyalarini bajaradi. Zamonaviy tadqiqotlar ushbu janrlarning lingvistik, semiotik, sotsiologik va madaniy-antropologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy kommunikativ muhitda topishmoq va maqollarning yangi shakllari, ularning ommaviy axborot vositalari va internetda paydo bo'layotgan variantlari xalq og'zaki ijodining doimiy rivojlanish va yangilanish jarayonini ko'rsatadi. Mavzuga oid ilmiy izlanishlar natijasida, topishmoq va maqollarning yosh avlod tarbiyasida, madaniy identitetni shakllantirishda, xalq tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi isbotlangan. Bu esa, topishmoq va maqollarni nafaqat folklorshunoslik, balki lingvistika, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, topishmoq va maqollar xalq madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, ularning

o‘rganilishi va taraqqiyoti zamonaviy ilmiy izlanishlar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990. – B. 100-109.
- 2.Husainova Z. O‘zbek topishmoqlari. – T.: Fan, 1966.
- 3.Husainova Z. Topishmoqlar / O‘zbek folklori ocherklari. 1-jild. – T.: Fan, 1988. – B. 98-128.
- 4.Kravsov N.I., Lazutin S.G. Russkoye ustnoye narodnoye tvorchestvo. – Moskva: Visshaya shkola, 1977. – S. 86-95.
- 5.Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati (ikkinchi nashri). – T.: O‘qituvchi, 1970. – B. 5-6, 119, 218.